

Akmalova F.F.

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Organik dehqonchilik va o'rmon melioratsiyasi" kafedrasi assistenti.

Akmalova F.F.

Assistant of the Department of "Organic Agriculture and Forest Melioration" at the Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies. Uzbekistan.

NOYOB O'SIMLIK VA HAYVON TURLARINI MUHOFAZA QILISHNING EKOLOGIK AHAMIYATI.

THE ECOLOGICAL SIGNIFICANCE OF CONSERVING RARE PLANT AND ANIMAL SPECIES.

Annotasiya: Bugungi kunda bioxilma xillikni saqlash va uni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasida hozirda tabiiy xududlarni yildan yilga qisarib borayotganligi sababli, Andijon viloyati sharoitida ham mavjud o'simlik va hayvon genofondini saqlab qolish va ularni ko'paytirish masalasi muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Hudud landshafti hozirda to'la o'zlashtirilgan bo'lib, madaniy, adir, tog' oldi, past tog'lar, tog' oralig'i botiqlari, adir orti tekisliklari, daryo vodiylari va terrasalarga bo'lingan.

Kalit so'zlar Andijon viloyati, o'simlik, hayvonot, cho'llar, muhofaza, landshaftlar, yovvoy, bioxilma-xillik, tuproqlar, madaniy.

Abstract: Today, the development of measures to preserve and protect biodiversity has risen to the level of state policy. Since natural territories are currently shrinking year by year in the Republic of Uzbekistan, the issue of preserving and increasing the existing plant and animal gene pool in the conditions of the Andijan region remains one of the important tasks. The landscape of the region is now fully developed and is divided into cultural, hilly, foothill, low mountains, intermountain depressions, foothill plains, river valleys and terraces.

Keywords: Andijan region, flora, fauna, deserts, protection, landscapes, wildlife, biodiversity, soils, cultural.

Inson tabiat bilan doimiy ravishda uzviy bog'langan bo'lib, bizning mamlakatimizda ham tabiatni ilmiy asosda muhofaza qilish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qator qonunlar qabul qilingan bo'lib, *“Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”*, deb belgilab qo'yilgan. Andijon viloyati hududidagi suv, yer va yer resurslari, o'simlik va hayvonot olami, madaniy va tabiiy landshaftlar o'lkamizning bebaho boyliklari hisoblanadi, shuning uchun ham, ularning muhofaza chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Farg'ona vodiysi sharoitida qumli massivlardan qurilish material sifatida qumlarni katta miqdorda olinishi, adir tuproqlaridan g'isht tayyorlashda keng miqyosda foydalanilishi, Shirmonbuloqdagi tog' toshlaridan ohak tayyorlashda foydalanish, tog'oldi va tog' hududlaridan yaylov sifatida foydalanish tabiiy landshaftlarning o'zgarib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida o'simlik va hayvonlar turlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Vodiy hududining deyarli barcha qismi o'zlashtirilib madaniy landshaftlarga aylantirilgan va sug'orma dehqonchilik amalga oshirilayotganligi tufayli, asosan, vohalarning madaniy o'simliklari o'sadi, lekin Otchopar adirlarida qisman bo'lsa-da efemer va efemeroid, chala cho'llar o'simliklari, adir yonbag'irlarida yantoq, sho'ra, shuvoq, burgan bog' va tokzorlarning oralarida, yo'l va ariq yoqalarida shirin miya, achchiq miya, sho'ra, yantoq va boshqa o'simliklar uchraydi. Bu joylarda eng ommabop yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklardan achchiq shuvoq, bo'yovchi ro'yon, na'matak, ikki uyali qichitqi o't o'simliklari ham o'sadi.

O'simlik olami deyarli madaniy o'simliklardan iborat bo'lib, geobotanik rayonlashtirish bo'yicha Farg'ona okrugiga mansubdir. Xudud asosan tekisliklar, adir va tog' oldi zonalardan iborat bo'lib, sho'ra-efemer, sho'ra-shuvoqli, yuzaga

chiqib qolgan gipssimon jinlarda siyrak turli sho'ralar turlari, hamda vohalarning madaniy o'simliklari: sho'ra, shuvoq, yantoq, achchiq miya, shirin miya, yalpiz, yaltirbosh va turli o'tsimon o'simliklar uchraydi. Eng ommabop yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklardan achchiq shuvoq, mushuko't, oddiy dastorbosh, sumbul, marmarak, turkiston arslonquyrug'i, tubulg'a bargli dastorbosh, supurgisimon shuvoq kabi o'simliklar ham tarqalgan.

Vodiyda uchraydigan o'simliklarning bir qancha vakillari Andijon xududiga ham xos bo'lib, ularga quyidagilar: achchiqmiya, burchoq, gulhayri, zubtutum, na'matak, maymunjon, otquloq, chuchukmiya, shuvoq, ermon, yantoq, qirqbo'g'im, sho'ra, qamish, bangidevona, mingdevona va boshqalar kiradi. Bu o'simliklar farmatsevtikada katta ahamiyatga ega bo'lib, turli kasalliklarni davolashda keng foydalaniladi. Viloyatimiz hududida erta bahorda estetik zavq beradigan chiroyli gulli o'simliklar lola, lolaqizg'aldoq, boychechak, chuchmoma (safsargul), qoqio't (momaqaymoq) kabilar keng tarqalgan bo'lib, cho'l, adir, tog' oldi, tog' hamda daryo vodiylarini egallagan, ular mart, aprel, may oylarida gullaydi.

Vohalarning madaniy o'simliklari, efemer-efemeroid chala-cho'l o'simliklari, tog' oldi va past tog'larning o'tlari hamda shuvoqli chala cho'l o'simliklarini uchratish mumkin. Asaka tumani Asaka adirlarida, Marhamat tumanining Rovot qishlog'i atrofidagi adirliklarda efemer va efemeroid chala cho'llar o'simliklari o'sadi, Marhamatning janubida Qora-Chotir tog'larining shimolidagi Uluu – tog'larning Marhamat tumani qismida tog' oldi va past tog'larning bo'liq o'tlari va shuvoqli chala cho'l o'simliklari o'ssa, Buloqboshi tog'lari o'rmon xo'jaligi xududida keng yaproqli daraxtlar va butalar, ko'p yillik o'tlar, efemerlar uchrab, qolgan xududlarda asosan voha madaniy o'simliklari tarqalgan. O'simliklar orasida eng ommabop yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklardan oddiy isiriq, tubulg'a boshli dastarbosh, supurgisimon shuvoq, Turkiston arslonquyrug'i, shirin miya, achchiq miya, ikki uyali qichitqi o't, dag'al qizilpoycha, oddiy tuyatovon kabi o'simliklar uchraydi.

Bu esa viloyatimiz hududida yovvoyi holda o'sadigan o'simlik turlarining kamayishiga, adir zonasida bog'dorchilik, uzumchilik sohasini rivojlantirish maqsadida terassa usulida bog'larning barpo qilinishi natijasida nasoslar orqali sug'orish ishlarini amalga oshirilishi va sug'orish ishlarini olib borishda e'tiborsizlikka yo'l qo'yilishi natijasida yerlarning yuvilishi, jarliklar hosil bo'lishi landshaftlarning o'zgarib ketishiga va buning natijasida ko'plab o'simlik turlarining kamayib, yo'qolib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Zoogeografik nuqtai nazardan qaralganda hayvonot dunyosi Turon tekislik va tog' provintsiyalarga mansub turlardan tashkil topgan bo'lib, asosan baliqlar, amfibiyalarning 2 turi, sudralib yuruvchilardan chipor ilon, suv ilon, kaltakesak, toshbaqa, echkamar, sut emizuvchilardan sichqon, kalamush, tulki, chiyabo'ri, qushlardan musicha, mayna, chumchuq, hakka, qarg'a, ola qarg'a kabi turlar tarqalgan. Bu hududda tog' oldi va tog' intrazonal, suvli – botqoqli, to'qay tabiiy ekosistemalar shakllangan.

Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha to'ng'iz (yovvoyi cho'chqa), chiya bo'ri, tulki, yovvoyi mushuk; sudralib yuruvchilardan kulrang echkamar, toshbaqa, chipor ilon, kaltakesak; qushlardan turkiston oq laylagi, burgut, lochin, qiyg'ir, mayna, musicha, dala chumchug'i, yovvoyi kabutar, qaldirg'och, ko'k qarg'a, olaqarg'a, hakka, kurkanak, qumri kabi turlarni va ayniqsa plastik turlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Hudud landshafti to'la o'zlashtirilgan bo'lib, madaniy, adir, tog' oldi, past tog'lar, tog' oralig'i botiqlari, adir orti tekisliklari, daryo vodiylari va terrasalarga bo'linadi. Madaniy landshaftlarda, asosan, dehqonchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, polizchilik, sabzavotchilik rivojlangan. Adir va tog' oldi zonalarida terassa usulida bog'dorchilik rivojlantirilgan.

Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan ro'yxatga ushbu xududga xos lochin, turkiston oq laylagi, mallabosh lochin (sahro lochini), itolg'i, burgut; kulrang echkamar; suv havzasida yashaydigan laqqa, o'simliklardan Farg'ona lolasi, jovgaza lola kabi turlar kiritilgan .

Yuqoridagilar bilan birga Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan Ajriqxo'r karmin beruvchi qurt, Achchiqmiyaxo'r karmin beruvchi qurt, Galateya, Turkiston skariti, Farg'ona keskiri, Farg'ona olaqonoti, Akreya katakquqanoti, Said-Aliyev taqir to'garakboshi, Rustomov stsink gekkoni kabi noyob turlar ham muhofaza qilinadi.

Mamlakatimiz hayvonot dunyosi juda qadimiyligi bilan ajralib turadi. Ba'zi hayvon turlari shu xududining o'zida paydo bo'lsa, ba'zi turlari boshqa mintaqalardan o'tgan.

O'zbekiston xududida paydo bo'lgan hayvon turlariga ingichka barmoqli yumronqoziq, ko'k sug'ur, Bobrinskiy qo'shoyog'i, xo'jasavdogar, qum bo'g'ma iloni, Turkiston gekkoni, Turkiston agamasi, katta kurakburun baliqlar, Orol shipi va boshqalar kirib, ular boshka joylarda deyarli uchraymaydi.

O'zbekistondagi ba'zi hayvon turlari, chunonchi katta kumsichqon, tamariks qumsichqoni, kichik qo'shyooq, qo'ng'ir yumronkozik, sayg'oq, qorsak tulkisi, sassiqko'zan, olako'zan, yovvoyi mushuk manul (dala mushugi) kabi hayvonlar Qozog'iston tekisliklaridan kirib kelgan. Jayron, barxon mushugi, karakal Old Osiyo va SHimoliy Afrika cho'llaridagi hayvonlarga aloqasi bor. Burama shoxli echki, qunduz, afg'on dala sichqoni, mayna kabilar esa, Afg'oniston faunasiga, O'zbekiston tog'larida yashovchi Himolay ulari, Tibet quzg'uni, Sibir echkisi, arxar, ilvirslar esa, Markaziy Osiyoga tegishlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Ergashev A. Umumiy ekologiya. – Toshkent: O'zbekiston, 2003.
3. A.To'xtaev Ekologiya. - Toshkent: O'qituvchi, 2001.
4. A.Ergashev. Umumiy ekologiya. To'ldirilgan nashr. – Toshkent: O'zbekiston

5. O.Abdurahmonov. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. – Toshkent:
Tafakkur Bo‘stoni, 2021